



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI	158-170

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida)	205-214

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shukhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	330-339
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI	398-403

Nasimov Azizbek Azimovich,
SamDChTI tadqiqotchisi

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY МОHIYATI

Annotatsiya: Maqolada axborotlashgan jamiyat rivojlanishida keyingi yillarda insoniyatning oldida turgan muammolarning yechim topishi, inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning falsafiy mohiyati tadqiq etilgan. Inson tomonidan voqelikka nisbatan zamonaviy tafakkurning namoyon bo'lishi natijasida axborotlashgan jamiyatning xalq hayotidagi vazifalarining yangilagnib borayotganligi tendensiyalari milliy ruhda axloqiy qadriyatlarga uyg'un tarzda yoritilan. Qolaversa, jamiyatda axborot texnologiyalarining yangi ko'rinishlari vujudga kelishi insonning g'oyaviy qarashlariga o'zining ta'sirini o'tkazayotganlini ilmiy tarzda ohib berilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, inson, manfaat, xalq, ehtiyoj, axloqiy qadriyatlar, axborot maydoni, texnologik taraqqiyot, tamaddun.

Nasimov Azizbek Azimovich,
researcher of SamSIFL

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF MORAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF THE INFORMATION SOCIETY

Abstract. In the article, the philosophical essence of the reforms aimed at providing solutions to the problems faced by humanity and ensuring human interests in the development of the information society in the following years is researched. As a result of the manifestation of the modern thinking of the person in relation to the reality, the trends of updating the tasks of the information society in the life of the people are illuminated in a manner consistent with the moral values in the national spirit. In addition, it has been scientifically revealed that the emergence of new forms of information technology in society has an impact on people's ideological views.

Key words: information society, human, interest, people, need, moral values, information space, technological development, civilization.

Насимов Азиз Азимович,
научный сотрудник СамГИИЯ

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА

Аннотации: В статье исследуется философская сущность реформ, направленных на решение проблем, стоящих перед человечеством, и обеспечение интересов человека в развитии информационного общества в последующие годы. В результате проявления современного мышления человека по отношению к действительности выявляются тенденции актуализации задач информационного общества в жизни людей в соответствии с нравственными ценностями в национальном обществе дух. Кроме того, научно выявлено, что появление новых форм информационных технологий в обществе оказывает влияние на идеологические взгляды людей.

Ключевые слова: информационное общество, человек, интерес, народ, потребность, моральные ценности, информационное пространство, технологическое развитие, цивилизация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N24>

Har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari rivojlanishida mavjud voqelikning axborot dunyosidan o'rinni olgan ma'lumotlar xalqning kelajagiga xizmat qiladi. Bunday jarayonda asosiy ma'lumotlar bazasi axborotlashgan jamiyat g'oyalari bilan ko'proq insonni o'ziga tortadi. Har bir olinadigan axborotning aniq, muayyan maqsadni o'zida ifodalashi, aholini qiziqtirishi, zamonaviy yutuqlarga ega bo'lishi barcha uchun muhim hisoblanadi. "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"^[1]. Bu yo'lida bugun fuqarolarimiz ongida milliy vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan qurollantirish davr talabidir.

Axborotlashgan jamiyat to'g'risida olimlar o'zlarining fikrlarini bildirar ekanlar, uning inson hayotidagi rolini ochib berishda xilma-xil qarashlarni ilgari suradilar. Ba'zi faylasuflar uning jamiyatdagi ma'lumotlarni tarqalishida, xalqning ongidan chuqur o'rinni olishida muhimligini ta'kidlasalar, ba'zilari uning millatlar axloqiy qadriyatlarini izdan chiqarishini mulohaza qiladilar. Axborotlashgan jamiyat tushunchasining vujudga kelishini yapon faylasufi Yu.Xaushi 1969 yilda "Yaponiya axborotlashgan jamiyat birdamligi siyosatiga chizgilar" tadqiqotida ishlatganligi ta'kidlanadi. Uning fikrlaridan ko'rish mumkinki, bu tushuncha moddiylikni emas, balki borliqning ma'naviyigini, insonning unda o'z ongini rivojlanirishi natijasida siyosatdagi o'zgarishlarning namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. "Axborotlashgan jamiyat insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biri, – deb yozadi yapon olimi Y. Ma'suda. – Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning o'ziga xos ijobiy o'zgarishiga olib keladi"^[2]. Bu yangilanishlar har bir sohada o'zgarishlarga olib kelishi qatorida zamonaviy dunyoqarashning rivojlanishida alohida o'rinni tutadi. Natijada, axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o'zgaradi. Bu jamiyat sifatsiz va ziddiyatsiz bo'lib, uni kichikroq davlat apparati boshqaradi. Yaponlarning axborotlashgan jamiyat konsepsiyasiga qo'shgan hissasi avvalo axborotlashtirish bilan kompyuterlashtirishni ijtimoiy taraqqiyotning alohida sohalari sifatida bir-biridan ajratgani bo'ldi.

Darhaqiqat, "axborotlashgan jamiyat" tushunchasini Y.Ma'suda yanada kengaytirib, postindustrial jamiyat nazariyasi haqidagi falsafiy konsepsiyasida axborot ijtimoiy hayotning barcha sohalarida peshqadamlik qilishini va jamiyatning texnologik taraqqiyoti davrida hukm suradigan "axborot hokimiyyati" vujudga kelishini asoslab beradi. Aslida, "axborot hokimiyyati" sanoatlashgan jamiyatda davlat boshqaruvining amaldagi uchta hokimiyatiga nisbatan norasmiy tarzdagi "to'rtinchi hokimiyat" izdoshidir. Y.Ma'suda insoniyat tamadduni rivojlanishini: an'anaviy, industrial va axborotlashgan jamiyatga bo'lib, unda axborotlashgan jamiyatni atributlarini ko'rsatib bergen.

Amerikalik sotsiolog D.Bellning ta'kidlashicha, axborotlashgan jamiyat, avvalo, ma'lumotlilik darjasini va malakasiga ko'ra, millat elitasini shakllantiradigan jamiyat. Tadqiqotchi axborotni jismonan iste'mol qilinmaydigan va eskirmaydigan "jamoaviy mahsulot" sifatida talqin qilib, industrial jamiyatda inson hayotiy faoliyatidagi mutlaqo yangi mahsulot bo'lgani uchun unga nisbatan o'sha davrda muomalada bo'lganidan o'zgacha me'yor va

mezonlarni qo'llash kerakligiga e'tibor qaratadi[3]. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimlarni o'zlashtirish usuli hisoblash texnikasiga asoslanishini o'rgangan E.Tofflerning fikricha, "axborotlashgan jamiyatda fan uslublari hajm jihatdan juda katta bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi"[4]. Bunda olimlar yangi faktlarni qidirish o'rniga korrelyatsiya va tendensiyalarni o'rgatishda mumkin bo'lgan ilmiy ma'lumotlarni axborot operatsiyalari orqali oladi. Xullas, axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishslash va ramziy kommunikatsiyalarga bog'liq bo'ladi.

Axborotlashgan jamiyatda "transformatsiyalashgan matbuot"ning shakllanishi va rivojlanish omillarini o'zbek olimlaridan O. Abduazimov o'z tadqiqotlari orqali fanga kiritgan. Axborotlashgan jamiyat va ommaviy kommunikatsiya vositalarining kelib chiqishini tadqiq etgan sotsiolog O.Abduzimov ommaviy kommunikatsiya vositalarining taraqqiyot tarixini uch davrga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Uchinchi davrda elektron vositali axborot almashinuv paydo bo'lishi bilan axborotlashgan jamiyatga o'tish sodir bo'lganini ta'kidlaydi[5].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining yetakchi mutaxassislaridan A.Aripov axborotlashgan jamiyatning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: A.Aripov konsepsiysi axborotlashgan jamiyatning O'zbekiston sharoitidagi xususiyatini ochib berishi nuqtai nazaridan qimmatlidir. Hozirgi paytda axborot almashinuv jahondagi globallashuv axborotlashgan sivilizatsiya shakllanishining tarkibiy qismi sifatida avvalgi zamon sharoitidan butunlay farq qiladi. Avval har bir fuqaro asosan o'z davlati va millati axborot tizimi ta'sirida rivojlangan bo'lsa, endi jahon miqyosida butun insoniyat yaratgan axborotlar oqimining kuchli ta'siri ostida shakllanmoqda. Rivojlanayotgan yangi O'zbekistonda ham axborot oqimi oshib borayotgani axborot almashinuv jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Axborot almashinividagi bu miqdor va sifat o'zgarishlari, tabiiyi, jamiyat hayotiga yangiliklar olib kirmoqda. Boshqacha qilib aytganda, axborot almashinuvini tartibga soluvchi funksiyalarga amal qilinayotgani tufayli sotsiumda ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Agar axborot almashinuv hodisasiga keng ko'lamda qarasak, uning inson va jamiyat hayotida nechog'lik katta ahamiyatga egaligiga guvoh bo'lamic. Sotsiumning eng kichik elementi – individdan tortib, insoniyat jamiyatigacha, ya'ni barchasining mavjudlik va rivojlanish sharti axborot almashinividir. Shunga ko'ra, axborot almashinuv jarayonini prognozlash va tartibga solish zarurati yuzaga kelmoqda.

Insoniyatning so'nggi taraqqiyot yo'lini axborotlashgan jamiyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu holat bugungi voqelikda mavjud vrtual makonning cheksiz imkoniyatlar o'chog'i ekanligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarda bu tushunchaning inson tafakkuri doirasini cheklab o'tadigan ma'lumotlar mavjudligi bilan ham farqlanadigan jihatlariga e'tibor berish lozim. Shuning uchun ilmiy izlanishlarda axborotning nabotot va tabobat olamidagi roli o'zining muhimligini ko'rsatib berdi. Bu tushunchani bugungi kunda faylasuflar o'z tadqiqot doiralarida tahlil etib, o'zlarining ta'riflarini berib kelishmoqda. Ushbu ta'rifda "axborotlashgan jamiyat – bu tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, hodisa, voqeа, jarayonlar haqida axborotlarni yig'ish, yaratish, saqlash, qayta ishslash, tizimlashtirish, uzatish va qabul qilish, iste'mol, ayirboshlash, taqsimlashga asoslangan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg'un holda tezkor harakatga keltiruvchi intellektual munosabatlar zaminiga qurilayotgan kishilar jamiyatidir"[6], deyiladi. Ta'rif haqiqatdan keng qamrovli bo'lib, jamiyatning rivojlanish dinamikasini ochib berishda, insonning axborot subyekti sifatida faoliyat olib borishini ifodalaydi.

Axborotlashgan jamiyat, uning strukturasi almashinuviga tizim sifatida yondashish ilmiy adabiyotlarda muayyan darajada tadqiq etilgan. Tizimli yondashuvning bunday usuli falsafa, psixologiya, huquqshunoslik, matbuot nazariyasi va pedagogika sohalari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Binobarin, axborot almashinuv hodisasini tadqiq etishda olimlar tizimli yondashuv usuliga mustahkam tayangani beziz emas. Ko'plab olimlar axborotlashgan jamiyat to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarda axborotlashgan jamiyat va axborot almashinuvi jarayoni muhimligi ta'kidlanib, ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning bir bo'lagi sifatida talqin qilinadi. Axborot almashinuvining boshqa fundamental jarayonlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ularning strukturaviy jihatlari axborot maydonida o'ziga xoslikni, unsurlarning bir-biriga bog'lanishini vujudga keltiradi. Bunday o'zaro aloqadorlik axloqiy qadriyatlarni inson manfaatlariga yo'naltirib, axborotlashgan jamiyatning yangi bilimlar bilan boyishiga, xalqning ehtiyojlarini ta'minlashga yo'l ochadi.

Jamiyatda axborot almashinuvi jarayonlariga aholining axborot madaniyati yuksalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bu global va mahalliy kommunikatsiya tarmoqlarining davr talablariga munosib ravishda rivojlanishidir. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun yuksak axborot texnologiyalari iqtisodiyotning hamma sohasiga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq yalpi internetlashuv jamiyatda va shaxslararo axborot almashinuvini yanada tezlatishi, hajmini oshirishi bilan bir qatorda, axborot xurujlarining ko'payishiga ham olib kelishi mumkin. Fuqarolarni, ayniqsa, yosh avlodni global tarmoqning salbiy ta'siridan saqlash uchun o'z vaqtida davlat tomonidan barcha xavfsizlik choralar ko'riliishi zarur. Xususan, axborot sohasidagi xavfsizlikni ishonchli ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi doktrinasi xalqning manfaatlarini himoya qilibgina qolmasdan, zamonaviy axborotlarning inson ehtiyojlarini qondirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Bu yo'lida axborotlashgan jamiyat hamisha umuminsoniy qadriyatlarni axloq bilan uyg'unligini ta'minlanishiga olib keladi.

E.Tofflerning fikricha, insoniyat axborotlashtirish orqali "evolyutsion taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'ymoqda. Bu shunchaki o'zgartirilgan jamiyat emas, balki butunlay yangi jamiyatni qurishdir"[7]. Bunday jamiyatni qurish oson bo'lmaydi, ko'plab nazariy va amaliy aspektdagagi chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi. So'nggi yillarda elektron aloqa uchun yangi texnologik manbalar paydo bo'lib bormoqda. Ushbu manbalar axborot asrining o'ziga xos xususiyatiga aylanib, o'zaro hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Hozirda ma'lumotni qiziqqan auditoriyaga yetkazish funksiyasi nafaqat an'anaviy ommaviy axborot vositalari, balki zamonaviy media makonlari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, foto, videoxosting) tomonidan ham amalga oshiriladi. Bu axborot almashinuvining yangi xususiyati sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularning axborotlashgan jamiyatda o'z ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirishida davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, shaffof axborotlarni xalqqa yetkazib berishlariadolat ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shundagina davlatning rivojlanishi yanada tezlashib, ko'zlangan marralarni egallash barcha sohalarda ildamlaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar axborot almashinuvining asosiy vositasiga aylanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda keng qo'llanishi mumkin. Insonlardagi axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirishda an'anaviy axborot vositarining imkoniyatlari tobora qisqarib bormoqda. Shu

bilan birga, axborotni cheklash, yopib qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Tizimni boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish me'yorlarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Internet blogerlik faoliyati jahon tajribasida ham tartibga solinmagan yo'naliш bo'lib, uning imkoniyatlarini samarali yo'naltirish orqaligina jamoatchilik fikrini salbiy ruhda shakllanishi oldini olish mumkin bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. –Б. 24.
2. Маъсуда Й. Информационное общество как постиндустриальное общество. – Москва: 1991. - С.172.
3. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования.– Москва: Academia,1999. – С. 256.
4. Тоффлер Э. Третья волна. // The Third Wave. – Москва: ACT, 2010. – С.448.
5. Абдуазимов О. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг 2001–2016 йиллардаги материаллари мисолида). Монография. –Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – Б. 50.
6. Yaxshilikov J. Ya., Muhammadiyev N.E. Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. – Samarqand, 2019. –В. 145.
7. Тоффлер Э. Шок будущего. – Москва: ACT, 2001. – С. 669.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).